



Pedagogical conditions for formation of research-creative skills related to nature in children of preschool age

Tursunoy BURIYEVA¹

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2022

Received in revised form

20 August 2022

Accepted 25 September 2022

Available online

25 October 2022

Keywords:

research,
creativity,
worldview,
intuition,
knowledge,
ability,
development,
plant,
animal.

ABSTRACT

Everyone should have natural knowledge. Primary school textbooks have a special role in it. They are designed to contribute to formation of natural science concepts in children. But a special role in this belongs to the topic “The world around”. Thus, the main goal should be formation of high-level natural science concepts in younger generation, because they are a basis for formation of culture of behavior in nature. In this article, the effect of pedagogic preconditions and cognitive abilities of preschool children research-creative skills related to nature is discussed.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss9/S-pp156-160>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

tadqiqot,
ijod,
dunyoqarash,
sezgi,
bilish,
qobiliyat,
rivojlanish,
o‘simlik,
hayvon.

Har bir inson tabiiy bilimga ega bo‘ishi kerak. Bunda boshlang‘ich maktab darsliklarining alohida o‘rni bor. Ular bolalarda tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirishga hissa qo‘shish uchun mo‘ljallangan. Ammo bunda alohida rol “Atrofdagi dunyo” mavzusiga tegishli. Shunday qilib, asosiy maqsad yosh avlodda yuqori darajadagi tabiiy fan tushunchalarini shakllantirish bo‘lishi kerak, chunki ular tabiatda xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda

¹ Lecturer at Preschool Education Department, Karshi State University, Karshi, Republic of Uzbekistan.
E-mail: t.alisherovna@mail.ru.

tabiatga oid taqlidiy-ijodiy ko'nikmalarni shallantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda bilish qobiliyatlariga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Педагогические предпосылки формирования исследовательско-творческих умений, связанных с природой у детей дошкольного возраста

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

исследование,
творчество,
мировоззрение,
интуиция,
познание,
способность,
развитие,
растение,
животное.

Каждый человек должен обладать естественными знаниями. Особую роль в этом играют учебники для начальных классов. Они призваны способствовать формированию у детей естественнонаучных представлений. Но особая роль в этом принадлежит теме «Окружающий мир». Таким образом, основной целью должно стать формирование у подрастающего поколения естественнонаучных представлений высокого уровня, поскольку они являются основой формирования культуры поведения в природе. В данной статье рассмотрены педагогические предпосылки развития имитационно-творческих навыков у детей дошкольного возраста, а также их влияние на познавательные способности.

KIRISH

Yosh avlod tarbiyasi va ularning tabiiy-ilmiy bilim va dunyoqarashini shakllantirish masalasi insoniyatni barcha davrlarda qiziqtirib kelgan. Insonlar doimo tabiatdagi hodisalar, ularning sodir bo'lishi, fasllar o'zgarishi, kun va tunning almashishi, hisob-kitobni bilishni istaganlar. Ular bu hodisalarga ba'zan qiziqsalar, ba'zan ulardan qo'rqanlar va ularni ilohiylashtirganlar. Shunday qilib insonlarning turmushda orttirgan tajribalari asosida tabiiy-ilmiy bilimlari shakllangan [1, 2, 3, 4].

Bolalar organizmining rivojlanishi tug'ilgandan boshlab amalga oshadi. Bu sezgi a'zolari va idrokning intensiv, juda tez rivojlanishi demakdir. Ana shu sezgi a'zolari va idroki tufayli tevarak-atrofdagi narsalarni, hidni, shaklni, uning katta-kichikligini, musiqani, tovushni, rangni ko'radi, sezadi. Ular haqida fikr yuritadi [5, 6, 7]. Sezgi a'zolariga ko'z, quloq, burun, teri kirib, ular ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri va harakatni, idroklari esa hayotni bilish vositasi hisoblanadi. Bolalarning psixik taraqqiyoti, ana shu sezgi a'zolari va idroklarining qanchalik taraqqiy etganiga bog'liq.

ASOSIY QISM

Sezgi va idrok qanchalik boy, yaxshi taraqqiy etgan bo'lsa, insonning tevarak-atrofdagi, tabiatdagi voqea-hodisalarni shunchalik tez tushunadigan va ular haqidagi ma'lumoti keng va ko'p qirrali bo'ladi [8, 9, 10].

Bolalardagi sezgi va idrokni rivojlantirishda biror maqsadni ko'zlab, mazmunli faoliyat jarayonida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday samarali faoliyatga katta guruhdagi tajriba va tajribalarni rejalashtirish, kognitiv va eksperimental faoliyatning istiqbolli rejasi alohida ahamiyatga ega.

Tarbiyachilar bolalarning psixologik rivojlanishini yaxshi bilib, ularning sezgi va irodalarini rivojlantirishda tabiat elementlarining roli katta ekanligini esdan chiqarmasliklari lozim.

Yasli yoshidagi bolalarda ranglarni sezish, ko'rish, eshitish, hid, ta'm va teri sezgilari juda erta boshlanadi. Shu sababli ularning sezgi va idroklarini tarbiyalashga qanchalik erta kirishilsa, shunchalik katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Boladagi sezgi a'zolarining rivojlanishi uning katta bo'lganda aqliy jihatdan takomillashuvini ta'minlaydi. Bu esa insonning hayotda zehni, sezgir, hozirjavob, tevarak-atrofdagi, tabiatdagi voqea-hodisalarni tez fahmlaydigan, analiz qiladigan kishilar bo'lib yetishishida katta ahamiyatga egadir. Mashhur chex pedagogi Y.A.Komenskiy bilish jarayonida sezgi a'zolarining rolini juda katta ekanligini ta'riflab: "Sezgi a'zolarimiz ongimizdan tashqi olamga qarata ochilgan darchalardir. Biz ongimizda aks ettirayotgan hamma narsa va hodisalar faqat mana darchalar orqali ongimizga kiradi. Bordi-yu, birorta darcha yopilib qolgan bo'lsa (ya'ni birorta sezgi a'zolarimiz ishdan chiqqan bo'lsa), u paytda biz shu sezgi a'zolarimiz bilan bog'liq bo'lgan narsalarni to'la aks ettira olmaymiz", - degan edi [11, 12, 13, 14].

Darhaqiqat, bu o'xshatma bola ongini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning birortasini "yopilib" qolishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

Bolalar bog'chasi bolalarni sezgi a'zolarini rivojlantirish uchun eng qulay joydir. Chunki bog'chalarda buning uchun ko'pgina ko'rgazmalar, texnika va texnologiyalar, sharoitlar mavjud.

Tabiat yordamida bolalar tafakkurining rivojlanishi. Globallashuv davrida yashayotgan yosh avlodimiz tushunchasi tafakkuri ancha o'tkir. Ikki yoshli bolalar tabiatda ko'rgan ko'zga tashlanib turadigan o'simlik, hayvonlarni ko'rib, idrok qilib ular haqida tafakkur qiladilar. Tafakkur bolaning bog'cha davrida juda tez rivojlanadi. Buning sababi bola bu davrda tabiatning turli elementlari bilan: yer, osmon, yulduz, quyosh, qor, yomg'ir haqida kattalardan eshitib, televizorda ko'rgan ertalaridan xulosa chiqarish orqali idrok etib, ularni tafakkur qiladi.

Hayotda, turmushda balalarni juda qiziquvchan, har narsani bilgisi keladigan, uni o'rganishga, bilishga, o'ziniki qilib olishga intilayotganini bilamiz.

Ular Yer kattami, Quyosh kattami?, Ot kattami?, Fil kattami?, Daraxtlar nega katta?, Osmondagi samoliyot tez uchadimi?, Qush tez uchadimi?, Qorni kim yog'diradi?, Qushlar qishda qayerda qishlaydi?, Shamolni kim puflayapti?, Bulutlar qayoqqa ketyapti? kabi savollar bilan murojaat qiladilar. Bolalarda bunday savollarning tug'ilishi tabiiy hol bo'lib, ular tabiat haqida, unda bo'ladigan voqealar, ertaklardagi ajdaho, dev, yalmog'iz kampir, sehrgar chol kabilar haqida bilgisi keladi. Tarbiyachilar esa bolalarning bu savollariga to'g'ri, aldamasdan, mohiyatini ilmiy asosda, tabiat qonunlari nuqtai nazaridan tushuntirib berishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining konkret obrazli bo'lishidir. Ular o'z tushunchalarida, mulohazalarida abstrakt tushunchani emas, konkret bola yashaydigan muhitdagi o'simlik hayvonlar haqida, tabiat elementlari haqida tushuncha berish kerak.

Yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish uchun biz tarbiyani maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlashimiz kerak. Tabiat bilan tanishtirish – bu bog'cha sharoitida bolalarning tabiat haqidagi ilk tushunchasi bo'lib, bu ularning tabiatga bo'lgan dunyoqarashlarining elementar asosini tashkil qiladi. Yosh avlodni tabiatga, ona Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini oshiradi.

Tabiat yordamida bilish qobiliyatini rivojlantirish. Bilish – voqelikni inson ongida aks ettirishdir. Bilishning maqsadi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni insonga bo'ysundirish va unga xizmat qildirishdan iboratdir. Bilish, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur hamda nutqni rivojlantirishdan iborat. Bu esa aqliy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Tevarak-atrofni, tabiatni, olamni bilish sezgi va idrokdan boshlanadi. Bu jarayonlarni qanchalik yaxshi bilsa, borliqni, tabiatni bilish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham biz bog'cha bolalarini ko'proq bilishga, ongini rivojlantirishga o'rgatishimiz lozim.

Bilish jarayonini rivojlantirishda tabiatning roli kattadir.

Tabiat – biz yashab turgan olam. Unda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda bilish bog'cha bolalarini to'g'ri tarbiyalanishi va shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida tabiat vositasida bilish xususiyatlarini tarkib toptirish o'rta va katta guruh bolalarida amalga oshirish samarali natija beradi. Lekin bu bilan, boshqa guruhlarda bilish nazariyasini singdirish, o'rgatish kerak emas, degan fikr kelib chiqmasligi lozim.

Tarbiyachilar esa bolalarning aktiv bilish faoliyatini, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishimiz zarur. Buni amalga oshirishda tabiatda bo'ladigan oddiy hodisalarning sodir bo'lish sabablarini o'rgatishdan boshlashimiz kerak. Bu yoshlarni tabiat sirlarini o'rganishga, ular haqida fikr yuritishga, bilimni shakllantirishga va bolaning bilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot – bolani tabiat bilan tanishtiruvchi ish shallaridan biridir.

Tabiatga oid kichik tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni katta yutuqlar sari yetaklaydi. Tadqiqotlar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'rganishga qiziqish o'sadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning harakter xususiyatini qayd qilishga odatlanadi.

Tadqiqot jarayonida bolalar tabiatning go'zalligini ko'rib katta taassurot olib hissiyotlari rivojlanadi. Shu asosda jonajon O'zbekiston ona tabiatiga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tarbiyalanadi. Tadqiqotdan mashg'ulot turi sifatida o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida foydalanish mumkin. Har bir tadqiqot uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qurbonmurodov B. (2022). Ijtimoiy falsafa taraqqiyoti. Zamonaviy dunyoda ilmfan va texnologiya, 1(4), 129–131.
2. Haydarov Q.H., Nishonova S.A. (1992). Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T.: O'qituvchi.
3. Nuriddinova M.I. (2004). Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T.: "Cho'lpon" – 2005-y.
4. Орипова Н., & Нарзиева Л. (2020). Социально-исторические и педагогические проблемы овладения профессией. Экономика и социум, (12-1), 868–871.
5. Adxamovna B.G. (2021). Directions for Improving the Organizational and Economic Mechanism of Food Industry Management in the Digital Economy. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(12), 16–21.

6. Муминова Н.А. (2017). Дидактические игры, используемые для повышения эффективности уроков родного языка в 1 классах начального образования. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (4), 39–41.
7. Орипова Н.Х., & Туропова М.С. (2021). Основные виды занятий для детей дошкольного возраста. Экономика и социум, (1-2), 291–294.
8. Djabbarov X.D., & Muminova N.A. (2021). Роль лексико-семантических средств в интерпретации антропонима тарагай и топонима тарагай. Theoretical & Applied Science, (1), 406–411.
9. Орипова Н., & Омонова М. (2021). Педагогико-психологические проблемы развития адаптивных процессов детей дошкольного возраста. Общество и инновации, 2(4/S), 197–200.
10. Муминова Н.А. (2016). Применение тестовых заданий на уроках родного языка в начальных классах. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (5), 153–155.
11. Ташланова Н.Д. (2018). Эффективное использование игровых технологий в процессе обучения. Форум молодых ученых, (4), 1419–1421.
12. Орипова Н., & Неъматова, С. (2021). 7 yoshli bolalar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarning kelib chiqish sabablari va omillari. Общество и инновации, 2(4/S), 182–186.
13. Ташланова Н.Д. (2018). Эффективное использование современных компьютерных технологий на уроках иностранных языков. Экономика и социум, (11), 907–910.
14. Орипова Н.Х., & Собирова Н.З. (2013). Смысл и сущность понятия убеждения. Science and world, 45.